



---

## CONCEPTS OF METHODS AND METHODS OF EDUCATION

Nursulu Algojayeva

Candidate of Pedagogical Sciences

Nurmatova Madina Odiljonovna

Associate Professor of the Kazakh National University

Named after Al-Farabi. Kokand SU V.B. Associate Professor, Lecturer

---

### Abstract

This article analyzes the theoretical and practical foundations of methods and methods of education, which are important components of pedagogical science. The relationship between the concepts of "method" and "method", their differences and their role in improving the effectiveness of the lesson. The article gives a comparative description of traditional and modern interactive methods, and recommendations on improving the pedagogical skills of the teacher.

**Keywords:** Teaching method, teaching methods, pedagogical technology, interactive approach, teaching effectiveness, didactics.

### TA'LIM METODLARI VA USULLARI TUSHUNCHALARI.

Nursulu Algojayeva

Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Nurmatova Madina Odiljon qizi.

Qo'qon DU v.b. dotsent o'qituvchi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan ta'lim metodlari va usullarining nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilinadi. Metod" va "usul" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni, ularning o'zaro farqli jihatlarini



hamda dars samaradorligini oshirishdagi rolini yoritib bergan. Maqolada an'anaviy va zamonaviy interfaol metodlarning qiyosiy tavsifi keltirilib, o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim metodi, ta'lim usuli, pedagogik texnologiya, interfaol yondashuv, o'quv samaradorligi, didaktika.

Zamonaviy taraqqiyot davrida ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda, bu esa o'z navbatida pedagogik mahorat va dars berish texnologiyalariga yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchiga faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadlarga erishishda ta'lim metodlari va ta'lim usullari muhim o'rinni egallaydi. Pedagogika fanida ushbu tushunchalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lsa-da, ularning har biri dars jarayonida o'ziga xos funksiyani bajaradi. Ta'lim metodlari o'quv jarayonining umumiy yo'nalishi va strategiyasini belgilab bersa, ta'lim usullari bu strategiyani hayotga tatbiq etuvchi konkret harakatlar zanjiridir. Hozirgi kunda pedagog-olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri — an'anaviy metodlar bilan zamonaviy interfaol yondashuvlarni qanday qilib uyg'unlashtirish masalasidir. Chunki har qanday murakkab metod o'rinli tanlangan kichik bir usul orqali o'quvchi uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi mumkin.

Ta'lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan tadqiqotchilarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtayi nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin. Ko'pchilik mualliflar ta'lim metodini o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

Shu qoidani boshlang'ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil ko'rib chiqish va uning ilmiy ta'rifiga kelishga harakat qilamiz.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga



solingan faoliyat. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda ham o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o‘quvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyati uyg‘unlashadi.

Ta‘lim metodlari o‘quv jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta‘minlovchi uslublar majmuidir.

Ta‘lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisi tushuniladi.

Didaktikada, shuningdek, ta‘lim usullari atamasi ham keng qo‘llanadi. Ta‘lim usuli – ta‘lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o‘qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Ta‘lim usuli – o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Masalan, o‘qituvchilar tomonidan ko‘p qo‘llaniladigan mashq manbasiga ko‘ra amaliy metod hisoblansa, uni qo‘llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o‘qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko‘rsatish (2-usul), o‘qituvchining namunasi asosida o‘quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o‘quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

O‘qituvchilarning ayrimlari esa, “metod” tushunchasining o‘rniga “uslub” tushunchasini ham qo‘llaydilar. Ammo “uslub” tushunchasi “metod” atamasining mohiyatini o‘zida to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko‘proq xususiy (so‘z borayotgan holatda aynan o‘qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo‘lib, aniq maqsadga erishish yo‘li sifatida xizmat qila olmaydi. Metodlarni tanlashda o‘quvchilarning yoshi, fanning xususiyati va darsning maqsadini inobatga olish pedagogik mahoratning oliy ko‘rinishidir. Ta‘lim metodi darsning umumiy strategiyasini belgilasa, usul uni amalga oshirishdagi aniq taktik harakatdir.



Ularning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarning mavzuni oson o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim metodlari va usullari o‘quv jarayonining asosi bo‘lib, ularni to‘g‘ri farqlash va o‘rinli qo‘llash dars sifatini belgilaydi. Demak, ta’lim usullarini muntazam ravishda yangilab borish va metodik holatini boyitish — zamonaviy o‘qituvchi oldida turgan eng muhim vazifadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. . B.Xodjayev-Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, “Sano-standart” nashriyoti
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU. 2012.
- 3.Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." International Bulletin of Applied Science and Technology 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'HOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." Academic research in educational sciences 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.
6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." Молодежь и XXI век-2015. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С
- 9.ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 5-6 (2018): 53-55. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE



---

BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. Eurasian Journal of Academic Research, 4(11), 144-146.

10.Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. Евразийский журнал академических исследований , 4 (11), 144-146.

11.Nurmatova, M. O., & Abdullayeva, D. N. (2025). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA O ‘QITUVCHILIK MAXORATNING TUTGAN O ‘RNI VA AHAMIYATI. Inter education & global study, 3(5 (1)), 213-218.

12.Зияев А.Н., Хушназарова М.Н., Меликузиева М.А., Абдулладжанова С.А., Абдуллаева Д., Нурматова М. и Екубьонова Г.Х. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. САНИЕРS MAGELLANES-NS , 6 (2), 7938-7944..

13.Gulyamova, Z. R., & Nurmatova, M. O. (2014). FEATURES OF THE FUNCTIONING AND WORD FORMATION OF SLANG UNITS. The Way of Science, 45.